

“GULISTON” DAGI “FE’L MASDARI+GEREFTAN” MODELLI FE’L SHAKLLARI BORASIDAGI NAZARIY QARASHLAR

Turdaliyev Olimjon Fayzullajon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola fors tilidagi “fe’l masdari+gereftan” modeli fe’l shakllari borasidagi nazariy masalalarga bag‘ishlangan. Forsiy jumlar Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asaridan olingan. Tarjimalarni berishda “Guliston”ning Ogahiy tomonidan qilingan tarjimasidan foydalanildi.*

Аннотация: *Данная статья посвящена теоретическим вопросам глагольных форм в модели «масдар+gereftan», встречающихся в персидском языке. Персидские предложения взяты из произведения Саади Шерази «Гулистан».*

Annotation: *This article deals with the theoretical issues of the verb masdar+gereftan model verb forms in Persian. Persian sentences are taken from Saadi Sherozi’s Gulistan.*

Kalit so‘zlar: *qo‘shma fe’l, fe’l masdari, gereftan fe’li.*

Fors tilidagi qo‘shma fe’llar nafaqat Eron, balki jahon tilshunoslari orasida ham birmuncha bahsli bo‘lgan masaladir. Xususan, eronlik dasturnavislardan Parvez Notel Xonlari⁵⁰, Ahmadi Givi⁵¹, Esmat Huvayni⁵², Parvez Albo‘rzi⁵³, Asg‘ar Shahbozi⁵⁴, Majid Dodfar⁵⁵, Hamedrezo Salmoni⁵⁶, Masume Najafi⁵⁷, Xayyompur⁵⁸, Doktor Ne‘matulloh Alipur⁵⁹, Mahmud Javod Mashkur⁶⁰, Ali Asg‘ar Faqih⁶¹, Mahdi Muiyniyon⁶², Mahdi Mashkuhiddin⁶³, G‘ulomrezo Arjang⁶⁴ va boshqalarning ishlarida qo‘shma fe’llar borasida nazariy qarashlarni ko‘rish mumkin. Lekin mazkur mualliflarning ishlarida ham fe’llarni tahlilga tortishdagi aniq bir asosning yo‘qligi, qo‘shma fe’llarni turli

⁵⁰ خانلری پرویز نائل. تاریخ زبان فارسی. جلد ۲ تهران ۱۹۸۷ ص ۱۲۷

⁵¹ حسن احمدی گیوی و حسن انوری. دستور زبان فارسی. انتشارات فاطمی. تهران ۲۰۱۱ ص ۲۷

⁵² اصمت خوبی. نکته هایی در باره فعل مرکب//پژوهشنامه زبان و ادب فارسی. شماره دوم. ص. ۴۵-۵۷

⁵³ پرویز البرزی. نقدی بر مقاله فعل مرکب در زبان فارسی از دکتر محمد دبیر مقدم//مجله زبانشناسی. شماره ۱. ص. ۴۴

⁵⁴ اصغر شهبازی. نقد مطالعات سنتی و نوین در باره فعل مرکب در زبان فارسی // مجله زبانشناسی. شماره ۲. ص. ۲۵-۲۴

⁵⁵ مجید دادفر، حمید رضا سلمانی. بررسی دیدگاه باطنی در مورد فعل ساده و فعل مرکب در زبان فارسی. مطالعات زبانی بلاغی. پاییز و زمستان

۱۳۹۰ شماره ۴ رتبه علمی-ترویجی (وزارت علوم) ص ۷۹-۹۲

⁵⁶ مجید دادفر، حمید رضا سلمانی. بررسی دیدگاه باطنی در مورد فعل ساده و فعل مرکب در زبان فارسی. مطالعات زبانی بلاغی. پاییز و زمستان

۱۳۹۰ شماره ۴ رتبه علمی-ترویجی (وزارت علوم) ص ۷۹-۹۲

⁵⁷ معصومه نجفی نقد و بررسی مبحث فعل مرکب در کتابهای زبان فارسی دوره متوسطه. نوآوری های آموزشی شماره ۳ مهر ۱۳۸۹ ص ۶۶-۶۴

⁵⁸ دکتر خیامپور. دستور زبان فارسی. چاپ شفق. تبریز. ۱۹۶۵ ص ۶۳

⁵⁹ نعمت الله فعل مرکب از دیدگاه دستور زبان سنتی و جدید در گلستان سعدی//فصل نامه تحلیل و نقد متون زبان و ادبیات فارسی. ص ۱۷-۱۶

⁶⁰ محمد جواد مشکور. دستورنامه در صرف و نحو زبان پارسی. تهران. ۱۹۶۷. ص ۷۳

⁶¹ علی اصغر فقیهی. دستور زبان فارسی. اسماعیلیان. قم. ۱۹۷۰. ص ۱۰۳-۱۰۴

⁶² مهدی معینیان. دستور زبان فارسی تهران. ۱۹۹۰. ص ۱۵۰

⁶³ عبد العظیم قریب و دیگران. دستور زبان فارسی. ج. ۲. تهران: ۱۹۴۸. ص ۳۷-۳۶

⁶⁴ غلامرضا ارزنگ. دستور زبان فارسی امروز. تهران. نشر قطره. ۱۹۹۵. ص ۱۰۲

jihatlarga ko'ra o'rganish ta'riflar va tasniflarning xilma-xil bo'lishiga olib kelgan. Biz ushbu maqolada "Guliston" asari misolida "fe'l masdari+gereftan" modeli eronshunos olimlar tomonidan qo'shma fe'l sifatida talqin etilgan fe'l shakllari borasidagi nazariy masalalarga to'xtalamiz. Fe'llarning mazkur ko'rinishiga oid nazariy ma'lumotlar va namunalar ko'pgina eronshunos olimlarning ishlarida uchraydi. Xususan, A. Quronbekov "fe'l masdari+gereftan" modeli qo'shma fe'llar sifatida ko'rsatib, misol tariqasida bāridan gereftan – yog'a boshlamoq; vazidan gereftan – esa boshlamoq fe'llarini keltiradi. [1, b. 92].

A.S Peysikov "Shohnoma"dan asosiy fe'lga qo'shilib, harakatning boshlanishini ifodalaydigan gereftan (olmoq – گرفتن) fe'li bilan keladigan bāridan gereftan –yog'a boshlamoq, ruidan gereftan – o'sa boshlamoq, šekāftan gereftan – ochila boshlamoq, tapidan gereftan – urishni boshlamoq (yurak haqida), deraxšidan gereftan – yaltiray boshlamoq kabi fe'llarni misol tariqasida keltiradi, shuningdek, fe'l yasalishining bu turi so'z yasalishining yangi formasi emasligi, bunday fe'llar fors-dariy tilining ilk va so'nggi davrlariga oid matnlarda ham uchrashini qayd etadi. [2, b. 113].

Yuqoridagi ta'riflar va misollardan ko'rinadiki, har ikki olim ham fe'l masdari+gereftan modeli fe'l shakllarini qo'shma fe'l sifatida talqin etadilar. Bizningcha, mazkur ko'rinishdagi fe'llarni qo'shma fe'l sifatida talqin etish maqsadga muvofiq emas, chunki ushbu qolipdagi fe'llar lisoniy emas, nutq jarayonida hosil bo'ladigan fe'lning grammatik shakllaridir. Fikrimizning dalili sifatida Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarida uchraydigan fe'l masdari+gereftan modeli fe'llarni quyida tahlilga tortamiz.

Fors tilining izohli lug'atlarida gereftan [گرفتن] fe'lining "olmoq, tutmoq" ma'nolari beriladi. "Fe'l masdari+gereftan" modeli fe'llarda esa u o'zining dastlabki leksik ma'nosini tamoman yo'qotib, "asosiy fe'ldan anglashilgan harakatning boshlanishi" grammatik ma'nosini ifodalashga o'tadi.

"Guliston"da gereftan sodda fe'lining sodda, prefiksli, qo'shma fe'lning hattoki fe'liy frazeologik birikmaning yordamchi komponenti sifatida kelganligi kuzatiladi. Quyidagi jumlada sodda fe'lning yordamchi qismi sifatida kelgan va asliyatdagi "asosiy fe'ldan anglashilgan harakatning boshlanishi" grammatik ma'nosi tarjimada aks etmagan. Faqatgina asosiy fe'lning o'zbekcha funksional muqobili berilgan.:

رفیق این سخن بشنید و بهم بر آمد و روی از هکایت من درهم کشید و سخن های رنجش آمیز گفتن گرفت که این چه عقل و کفایت است و فهم و درایت؟

Tarjimasi: Rafiq bu so'zlarni eshitib, xafa bo'lib, mening hikayatimdan yuz o'girdi va ranjishomiz so'zlarni ayta boshladi: Bu qanday aql-u farosat va fahm-u kayosatdir?

Mazkur jumlada ham gereftan fe'li kuftan (mushtlamoq, tuymoq) sodda fe'lining yordamchi qismi sifatida namoyon bo'lgan hamda o'z leksik ma'nosidan uzoqlashib, yordamchi so'zdek grammatik ma'no ifodalab kelgan:

چندان که ریش و گریبان به دست جوان افتاد به خود در کشید و بی محابا کوفتن گرفت.

Tarjimasi: Soqoli va bilagi yigitning qo'liga tushishi bilan o'ziga tortib olib ayovsiz mushtlay boshladi.

Quyidagi jumlada esa ikki qo'shma fe'l uchun yordamchi komponent sifatida birgina gereftan fe'li kelganligi va u har ikki asosiy fe'ldan anglashilgan harakatning boshlanishi grammatik ma'nosini ifodalanganini ko'rish mumkin. Ushbu jumlada bir o'rinda sodda fe'lining (xordan), boshqa o'rinda esa prefiksli fe'lining (bar āvardan) yordamchi komponenti sifatida keladi. sodda fe'ning komponenti sifatida lisoniy jihadan to'liq – xordan gereft, prefiksli fe'ning komponenti sifatida esa noverbal xarakterda kelgan – bar āvardan (gereft). Shunday bo'lsa-da, mazkur holat uslubiy jihatdan me'yoriy sanaladi.

[5, b. 124] برگ درختان خوردن گرفت و بیخ گیاهان بر آوردن تا اندکی قوت یافت

Tarjimasi: To biroz quvvat topish uchun daraxtlarning bargini yeyishni va giyohlarning tomirini sug'urishni boshladi.

Quyidagi jumlada esa gereftan fe'li ism qismi qo'shma fe'l bo'lgan grammatik birlikning yordamchi komponenti funksiyasida kelgan. Bu namunada ham konyuksionalizatsiya hodisasi tufayli "gereftan" fe'li o'z leksik ma'nosidan ayrilib, harakatning tarzini ifodalovchi yordamchi fe'l maqomini xususiy lashtirgan:

بفرمودش تا حاضر آوردن و ملامت کردن گرفت که در شرف نفس انسان چه حل دیدی که خوی بهایم گرفتگی و طرک عشرت مردم گفتی؟

Tarjimasi: Uni huzuriga keltirishlarini buyurdi. Va uni malomat qila boshladi: Inson qalbining sharafiga nomuvofiq ne holni ko'rdingki, kayfiyatimni buzib, insonlarni baxtsiz qilish haqida so'zlading?

Gereftan fe'li hatto bir o'rinda fe'liy frazeologik birikmaning yordamchi komponenti bo'lib kelgan. Bu holatda ham frazema anglatgan asosiy harakatning boshlanishiga ishora qilgan:

[5, b. 12]. ملک دست تخیر به دندان گزیدن گرفت و گفت

Tarjimasi: Podshoh bu voqeani eshitib, hasrat barmoqini hayrat tishi bila tishlab, dedi.

Yuqoridagi jumlada berilgan frazeologik birlik Ogahiy tarjimasida o'ziga xos, badiiy qayta ishlangan, xalqchil muqobilini topgan. Tarjimaning asl maqsadi durdona asarni turkiy tilda so'zlashuvchi keng kitobxon ommasiga taqdim qilish edi. Ogahiy ana shu maqsaddan kelib chiqib tarjima tilini imkon qadar xalq tiliga yaqinlashtirib, turli jimjimador, badiiy obrazlardan holi ravishda amalga oshiradi.

Bu qismda “fe’l masdari+fe’l” modelidagi qo’shma fe’llarning Ogahiy tarjimasida aks etish yo’sinlari, tarjima xususiyatlarini berish bilan birga, qo’shma fe’llarning mazkur kam uchraydigan tipiga bog’liq bo’lgan ba’zi nazariy masalalarga ham to’xtalib o’tishni lozim topdik. Bu o’rinda “fe’l masdari+gereftan” modelidagi fe’llar biroz bahslidir. Fors tili grammatikasiga bag’ishlangan ko’pgina ilmiy manbalarda ular qo’shma fe’llarning bir turi sifatida ko’rsatiladi.

Yuqoridagi misollardan ko’rish mumkinki, gereftan fe’li biror bir fe’l masdari bilan qo’shilganda, yangi bir tushunchani ifodaladigan leksema yasalmaydi. Bu holatda asosiy fe’lning ma’nosi to’la saqlanadi. Gereftan fe’lining “olmoq, tutmoq” ma’nolari butunlay yo’qolib, “asosiy fe’ldan anglashilgan harakat yoki holatning boshlanishini ifodalovchi” yordamchi fe’l maqomiga tushadi. Mazkur fe’l asosiy fe’lning ma’nosiga ta’sir o’tkazmaydi.

Kompozitsiya usulida yasaluvchi so’zlarda umumiy ma’no qo’shma so’zning morfemik tarkibiga kiruvchi taksonomik birliklarning ma’nolari yig’indisidan kelib chiqadi. M: [bel – inson tanasining o’rta qismi, bog’ – biror narsani bog’lash yoki ushlab turish uchun ishlatiladigan narsa. Belbog’ – kiyimlarni va belni mahkam tutish uchun inson tanasining bel qismiga bog’lab yuriladigan matol].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, shakl va ma’no borasida bahs ketganda ma’no yuqori darajaga qo’yilgan. Fe’l masdari+gereftan modeli fe’llar shakl jihatdan qo’shma fe’llarga juda yaqin tursa ham, ma’no jihatdan qo’shma fe’l talablariga muvofiq kelmaydi. Shuning uchun fe’llarning bu tipini harakat yoki holatning tarzini ifodalovchi fe’lning analitik ko’rinishdagi grammatik shakllari sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Quronbekov. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2009. – 98 b.
2. Л.С. Пейсиков. Лексикология современного персидского языка. – Москва: -1975.
3. Мухаммадризо Огахий. Асарлар. 9-жилд. – Тошкент: Шарк, 2019. – 222 б.
4. لغتنامه ده خدا. علی اکبر ده خدا. جلد ۴. ص ۱۳۶۵.
5. گلستان سعدی. دنیای کتاب. – تهران: اسفند ۸۲ ص ۲۳۹.